

**SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA RESURLARIDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA
HUDUDIIY INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH**

Safarova Maftunabonu

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi hududiy iqtisodiy rivojlanish, investitsion muhit, tarmoqlararo tarkibiy siljishlar va investitsiya siyosatining natijadorligi bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Maqolada investitsiya tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning hududiy rivojlanishdagi vazifasi, investitsiya samaradorligini shakllantiruvchi omillar va ularni baholash mezonlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Surxondaryo viloyati misolida 2020-2025-yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar, yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, xorijiy investitsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi asosida investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Tadqiqot natijasida mintaqaviy investitsiya samaradorligini integral baholash yondashuvi taklif etilib, investitsiya siyosatini raqamli monitoring, tarmoqlararo muvozanat, innovatsion va "yashil" loyihalar, davlat-xususiy sheriklik hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish asosida takomillashtirish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya samaradorligi, hududiy iqtisodiyot, Surxondaryo viloyati, investitsion muhit, asosiy kapital, xorijiy investitsiyalar, integral baholash, davlat-xususiy sheriklik, yashil investitsiyalar, hududiy investitsiya siyosati.

Kirish

Hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, bandlikni oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va aholi farovonligini ta'minlashning asosiy iqtisodiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Investitsiya faqat kapital kiritish jarayoni emas, balki hududning uzoq muddatli iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi, tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtiruvchi va iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Shu sababli investitsiyalarni jalb etish masalasi ulardan samarali foydalanish muammosidan ajralgan holda o'rganilishi mumkin emas.

Investitsiya resurslaridan samarali foydalanish mintaqaning mavjud tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy va infratuzilmaviy imkoniyatlarini iqtisodiy

natijaga aylantirish darajasi bilan belgilanadi. Hududga katta hajmda kapital kirib kelishi ijobiy holat bo'lsa-da, uning qaysi tarmoqlarga yo'naltirilgani, qancha ish o'rni yaratgani, ishlab chiqarish hajmini qanday oshirgani, eksport salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatgani va mahalliy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatini qanchalik kengaytirgani investitsiya siyosatining haqiqiy samaradorligini belgilaydi.

Surxondaryo viloyati iqtisodiy-geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi salohiyati, transchegaraviy savdo imkoniyatlari, turizm va transport-logistika yo'nalishlaridagi ustunliklari bilan investitsiyalarni jalb etish uchun muhim hududlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatda investitsiya resurslaridan foydalanish jarayonida tarmoqlar kesimidagi nomutanosiblik, innovatsion loyihalar ulushining yetarli emasligi, ayrim hududlarda infratuzilma tayyorgarligining pastligi, investitsiya loyihalarini baholash va monitoring qilish tizimining yetarlicha mukammal emasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Dissertatsiya materiallarida ham mintaqada investitsiyalardan foydalanishning hozirgi holati, iqtisodiy samaradorligi, investitsion muhit, innovatsion va "yashil" investitsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Mazkur maqolaning ilmiy ahamiyati Surxondaryo viloyatida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oddiy hajmiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki **integral baholash yondashuvi** asosida tahlil qilishga qaratilgani bilan belgilanadi. Bunday yondashuv investitsiyalar hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya, yalpi hududiy mahsulotdagi ulush, xorijiy investitsiyalar salmog'i, tarmoqlar bo'yicha tarkibiy taqsimot va innovatsion yo'nalishlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Maqolaning maqsadi Surxondaryo viloyatida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash, mavjud tendensiyalarni aniqlash va hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Investitsiya faoliyati, hududiy investitsiya siyosati va investitsiya samaradorligini baholash masalalari O'zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. **A.O'lmasov, Sh.Shodmonov, A.Vahobov, S.G'ulomov, B.Xodiyev, N.Xaydarov, D.G'ozibekov, Q.Abdurahmonov, G.Abdurahmonova, B.Yo'ldoshev, D.Tashmuxeimedov, Sh.Ergashev, A.Saidov, M.Pardayev** kabi olimlarning ilmiy ishlarida investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, kapital qo'yilmalarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri, investitsion muhit, makroiqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot va hududiy iqtisodiy o'sish masalalari yoritilgan.

MDH mamlakatlari olimlari orasida **L.Abalkin, S.Glazhev, V.Senchagov, A.Tatarkin, A.Granberg, I.Blank, V.Kovalev, N.Korchagin** tomonidan investitsiya siyosati, iqtisodiy xavfsizlik, mintaqaviy rivojlanish, investitsion jozibadorlik va kapital qo'yimalarning samaradorligi masalalari tadqiq etilgan.

Jahon iqtisodiy ilmida investitsiyalar va iqtisodiy o'sish masalalari **J.M.Keynes, P.Samuelson, R.Solow, J.Tobin, H.Markowitz, M.Porter, J.Dunning, P.Krugman, G.Myrdal, F.Perroux** kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, taqqoslash, guruhlash, tarkibiy tahlil va integral baholash yondashuvlariga asoslandi. Tadqiqotning empirik bazasini Surxondaryo viloyatida 2020-2025-yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, o'sish sur'ati, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori, investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, xorijiy investitsiyalar salmog'i, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi va tarmoqlar bo'yicha investitsiya tarkibi tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

Surxondaryo viloyatida 2020-2025-yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Dissertatsiya ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davrda investitsiyalar hajmi 8,5 trln so'mdan 18,4 trln so'mgacha oshgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar miqdori 3 120 ming so'mdan 6 120 ming so'mgacha ko'paygan. Investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 24,5 foizdan 29,4 foizgacha oshgan. Xorijiy investitsiyalar ulushi 35,0 foizdan 52,0 foizgacha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 18,0 foizdan 33,8 foizgacha ko'tarilgan. Bu raqamlar viloyatda investitsion faollikning kuchayganini, kapital oqimlari hajmi kengayganini va xorijiy investorlar ishtiroki ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, investitsiyalar hajmining ikki baravardan ko'proq oshishi hududda ishlab chiqarish, infratuzilma, xizmatlar va logistika sohalarida kapital talabining ortganini bildiradi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar miqdorining oshishi kapital qo'yimalarning hudud aholisi iqtisodiy faolligiga ta'siri kuchayayotganini anglatadi. Investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi oshgani esa iqtisodiy o'sish tarkibida investitsiya omilining salmog'i ortib borayotganidan dalolat beradi. Xorijiy investitsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushining o'sishi esa hududning tashqi kapital uchun jozibadorligi kuchayayotganini ifodalaydi.

Biroq investitsiya samaradorligini faqat umumiy hajm orqali baholash yetarli emas. Xorijiy investitsiyalar ulushi yuqori bo'lishi ijobiy ko'rsatkich sanaladi, ammo

ushbu investitsiyalar past qoʻshilgan qiymatli faoliyatga yoʻnaltirilsa, ularning uzoq muddatli iqtisodiy samarasi cheklangan boʻlishi mumkin. Shu sababli Surxondaryo viloyati uchun investitsiya siyosatining ustuvor vazifasi xorijiy kapitalni chuqur qayta ishlash, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasi, transport-logistika, turizm, xizmatlar va zamonaviy texnologiyalar bilan bogʻliq loyihalarga yoʻnaltirishdan iborat boʻlishi kerak.

Tarmoqlar kesimidagi tahlil Surxondaryo viloyatida investitsiya tarkibida sezilarli siljishlar yuz berganini koʻrsatadi. 2020-2025-yillarda sanoat tarmogʻiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar ulushi 32,0 foizdan 41,2 foizgacha oshgan. Qurilish sohasida bu koʻrsatkich 18,0 foizdan 22,3 foizgacha koʻtarilgan. Xizmatlar sohasiga investitsiyalar ulushi 15,0 foizdan 19,5 foizgacha oshgan. Transport-logistika yoʻnalishida investitsiyalar ulushi 6,0 foizdan 8,5 foizgacha koʻpaygan. Qishloq xoʻjaligi ulushi esa 20,0 foizdan 14,0 foizgacha kamaygan.

Sanoatga investitsiyalar ulushining ortishi viloyat iqtisodiyotida ishlab chiqarish sektorining ustuvor yoʻnalishga aylanayotganini koʻrsatadi. Bu jarayon hududda yangi korxonalar tashkil etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Qurilish sohasiga investitsiyalar oʻsishi infratuzilma, uy-joy, ijtimoiy obyektlar va ishlab chiqarish binolari qurilishi bilan bogʻliq iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Xizmatlar sohasidagi oʻsish savdo, turizm, moliyaviy xizmatlar, taʼlim, sogʻliqni saqlash va boshqa xizmat yoʻnalishlarida bozor talabining kengayganini bildiradi.

Transport-logistika yoʻnalishidagi investitsiyalar ulushining ortishi Surxondaryo viloyatining geostrategik joylashuvi bilan bevosita bogʻliq. Viloyatning chegaraoldi hudud sifatidagi mavqei, qoʻshni davlatlar bilan savdo aloqalari, xalqaro transport yoʻlaklariga chiqish imkoniyatlari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish ehtiyoji ushbu sohani investitsiya siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylantiradi. Bu yoʻnalishning rivojlanishi sanoat, qishloq xoʻjaligi, turizm va eksport faoliyatiga ham bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Qishloq xoʻjaligiga investitsiyalar ulushining nisbiy kamayishi alohida eʼtibor talab qiladi. Mazkur kamayish boshqa tarmoqlarning tezroq oʻsishi natijasida yuzaga kelgan boʻlishi mumkin, ammo Surxondaryo viloyatining agroiklimiy salohiyati, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, issiqxona xoʻjaliklari va oziq-ovqat sanoati imkoniyatlari qishloq xoʻjaligini investitsion siyosatdan chetda qoldirmaslik zarurligini koʻrsatadi. Qishloq xoʻjaligiga yoʻnaltiriladigan investitsiyalar oddiy xomashyo yetishtirishga emas, balki mahsulotni qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, sertifikatlash, agrologistika va eksport zanjirlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Taklif etilayotgan **mintaqaviy investitsiya samaradorligini integral baholash yondashuvi** Surxondaryo viloyatida investitsiya jarayonlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv bo'yicha investitsiya samaradorligi yetti asosiy mezon asosida baholanadi. Ular investitsiyalar hajmining o'sish sur'ati, aholi jon boshiga investitsiya miqdori, investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, xorijiy investitsiyalar ulushi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi, tarmoqlararo diversifikatsiya darajasi, innovatsion va "yashil" investitsiyalar ulushidan iborat.

Mazkur mezonlar birgalikda baholanganda hududda investitsiya jarayonlarining haqiqiy sifati aniqlanadi. Masalan, investitsiyalar hajmi oshib borishi ijobiy holat bo'lsa-da, ularning asosan bir yoki ikki tarmoqqa jamlanishi hududiy iqtisodiy barqarorlik uchun xavf tug'diradi. Xorijiy investitsiyalar ulushi yuqori bo'lsa-da, ularning texnologik yangilanishga xizmat qilmasligi yoki mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya yaratmasligi samaradorlikni pasaytiradi. Aholi jon boshiga investitsiyalar ko'paygani holda bandlik, mahalliy daromadlar va ijtimoiy infratuzilma yaxshilanmasa, investitsiya siyosatining ijtimoiy natijadorligi yetarli darajada namoyon bo'lmaydi.

Muhokama

Surxondaryo viloyatida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mavjud yondashuvlarni sifat jihatdan yangilash zarur. Hududiy investitsiya siyosati faqat investorlarni jalb qilish yoki loyiha sonini ko'paytirishga emas, balki investitsiyalarning iqtisodiy natijasini oldindan baholash, ularni amalga oshirish jarayonida monitoring qilish va yakuniy samaradorligini aniq indikatorlar asosida o'lchashga qaratilishi kerak. Bunday yondashuv investitsiya resurslarining maqsadli ishlatilishini kuchaytiradi va samarasiz loyihalarga kapital yo'naltirilishining oldini oladi.

Mintaqaviy investitsiya samaradorligi integral indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$MISI = a_1Ih + a_2Iab + a_3Iyahm + a_4Ixi + a_5Itxi + a_6Id + a_7Iyi$$

Bu yerda:

MISI - mintaqaviy investitsiya samaradorligi integral indeksi;

Ih - investitsiyalar hajmining o'sish sur'ati;

Iab - aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori;

Iyahm - investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi;

Ixi - xorijiy investitsiyalar ulushi;

Itxi - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi;

Id - investitsiyalarning tarmoqlararo diversifikatsiya darajasi;

Iyi - innovatsion va “yashil” investitsiyalar ulushi;

a₁...a₇ - har bir indikatorning ahamiyat koeffitsiyenti.

Mazkur formula investitsiya samaradorligini faqat mablag‘ hajmi orqali emas, balki uning hududiy iqtisodiyotga real ta’siri, tarmoqlararo muvozanati, xorijiy kapital sifati, innovatsion yo‘nalishi va uzoq muddatli barqarorlikka xizmat qilish darajasi orqali baholash imkonini beradi. Shu jihatdan taklif etilayotgan integral indeks hududiy investitsiya siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish uchun amaliy baholash vositasi sifatida foydalanilishi mumkin.

Surxondaryo viloyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun mahalliy kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham zarur. Investitsiya loyihalari zamonaviy texnologiyalarni olib kiradi, ammo ushbu texnologiyalarni ishlata oladigan malakali mutaxassislar yetarli bo‘lmasa, loyiha samaradorligi pasayadi. Shu sababli investitsiya siyosati kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini va investorlar hamkorligi bilan bog‘liq holda olib borilishi kerak. Har bir yirik investitsiya loyihasi tarkibida mahalliy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Surxondaryo viloyatida 2020-2025-yillar davomida investitsiya jarayonlari sezilarli faollashgan, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi oshgan, aholi jon boshiga investitsiyalar ko‘paygan, investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ortgan, xorijiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar salmog‘i kuchaygan. Bu holat viloyatda investitsion muhit yaxshilanayotganini va hududiy iqtisodiyotda kapital omilining ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun investitsiya hajmini ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas. Investitsiyalarning tarmoqlar kesimidagi muvozanati, texnologik darajasi, mahalliy ishlab chiqarish bilan bog‘lanishi, eksport salohiyatiga ta’siri, bandlik yaratish imkoniyati va ekologik barqarorlikka mosligi ham kompleks baholanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 560 b.
2. Vahobov A.Yu. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish. - Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2015. - 320 b.
3. G‘ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyotda investitsiyalar tahlili: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: TDIU, 2020. - 310 b.
4. Abduraxmanova G. Raqamli transformatsiya va iqtisodiyot. - Toshkent: Fan, 2021. - 220 b.

5. Ergashev Sh. Strategik tarmoqlarni rivojlantirish iqtisodiyoti. - Toshkent: Fan, 2017. - 210 b.
6. Tashmuxeimedov D. Innovatsion rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. - 180 b.
7. Yo'ldoshev B. Ilmiy-texnik rivojlanish va innovatsiyalar. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 200 b.
8. Jo'rayev A.S., Safarov G'.A., Meyliyev O.R. Soliq nazariyasi. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. - 375 b.
9. Nabiyev H.G'., Nabiyev D.H. Iqtisodiy statistika: darslik. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. - 420 b.